



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 166 sahifa,
5-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	



O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish	110
<i>Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	
Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-diagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды	154
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей	158
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA GENDER IDENTIFIKATSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA OTA- ONALAR BILAN ISHLASHNING MOBIL ILOVAGA ASOSLANGAN INNOVATSION MODELII

Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna

Xalqaro Nordik universiteti katta o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

ORCID: 0009-0001-3361-600X

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli tahlil qilinadi. 6–7 yoshli bolalar ota-onalari ishtirokida o'tkazilgan tajriba-sinov jarayonida muallif M.Q. Razzoqova tomonidan ishlab chiqilgan mobil ilova orqali metodik tavsiyalar, testlar va kundalik maslahatlar taqdim etildi. Natijalar ushbu model ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish hamda bolalarda gender identifikatsiyasining sog'lom shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: gender identifikatsiyasi, maktabgacha ta'lim, ota-onalar bilan ishlash, mobil ilova, innovatsion model, raqamli pedagogika, gender tarbiyasi.

Abstract: This article analyzes an innovative mobile application-based model of working with parents to develop gender identity in preschool children. An experimental study was conducted with parents of children aged 6–7, during which a mobile application developed by the author, M.Q. Razzoqova, was used to provide methodological recommendations, tests, and daily guidance. The results indicate that this model contributes to improving parents' pedagogical literacy and has a positive impact on the healthy development of gender identity in children.

Key words: gender identity, preschool education, working with parents, mobile application, innovative model, digital pedagogy, gender education.

Аннотация: В статье анализируется инновационная модель работы с родителями по развитию гендерной идентификации у детей дошкольного возраста на основе мобильного приложения. В ходе опытно-экспериментальной работы с участием родителей детей 6–7 лет использовалось мобильное приложение, разработанное автором М. К. Раззаковой, через которое предоставлялись методические рекомендации, тесты и ежедневные консультации. Результаты исследования показали, что данная модель способствует повышению педагогической грамотности родителей и оказывает положительное влияние на формирование здоровой гендерной идентификации у детей.

Ключевые слова: гендерная идентификация, дошкольное образование, работа с родителями, мобильное приложение, инновационная модель, цифровая педагогика, гендерное воспитание.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda bolalarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi ^[4].

Maktabgacha yosh davri inson hayotidagi eng muhim rivojlanish bosqichlaridan biri bo'lib, aynan shu davrda bola shaxsining psixologik, ijtimoiy, axloqiy va kommunikativ asoslari shakllanadi ^[5]. Shu bois mazkur bosqichda bolaning o'zini anglashi, shaxsiy "Men" konsepsiyasining tarkib topishi hamda gender identifikatsiyasining rivojlanishi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Gender identifikatsiyasi bolaning o'zini muayyan jins vakili sifatida anglashi, o'z jinsiga xos ijtimoiy rollarni qabul qilishi, tegishli xulq-atvor me'yorlarini egallashi va shu asosda shaxsiy pozitsiyasini shakllantirish jarayonidir ^[3].



Psixologik va pedagogik tadqiqotlarda 3–7 yosh oralig'i gender identifikatsiyasining faol rivojlanish davri sifatida e'tirof etiladi^[6]. Aynan shu yoshda bola oiladagi munosabatlar, tengdoshlar bilan muloqot, pedagogik muhit hamda ommaviy axborot vositalari ta'sirida genderni o'zlashtirishga oid dastlabki tasavvurlarni egallaydi. Mazkur jarayonning ilmiy asosda yo'naltirilishi kelgusida bolaning ijtimoiy moslashuvi, shaxsiy barqarorligi va adekvat xulq-atvorini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy jamiyatda axborot oqimining kuchayishi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi va media mahsulotlarining bolalar hayotiga chuqur kirib borishi natijasida gender identifikatsiyasining shakllanish mexanizmlari ham murakkablashib bormoqda^[4].

Turli multfilm qahramonlari, internet kontenti, reklama mahsulotlari hamda virtual kommunikatsiya vositalari bolalarning jinsga oid qarashlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda^[5]. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirish faqat ta'lim tashkiloti doirasida emas, balki oila bilan hamkorlikda tizimli ravishda olib borilishi zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy manbalarda oilaning gender identifikatsiyasi shakllanishidagi o'rni ustuvor omil sifatida baholanadi. Bola dastlabki ijtimoiy tajribani oilada egallaydi, ota-onaning xatti-harakati, oiladagi rollar taqsimoti, muloqot madaniyati va tarbiya uslublari orqali genderni o'zlashtiradi^[2]. Shu bois ota-onalarning pedagogik savodxonligi, gender tarbiya bo'yicha bilim va ko'nikmalari mazkur jarayon samaradorligini belgilovchi muhim mezonlardan biridir^[1]. Biroq amaliyotda ko'plab ota-onalarda gender tarbiya bo'yicha ilmiy tushunchalarning yetarli emasligi, ayrim stereotip qarashlarning saqlanib qolayotgani kuzatiladi^[1].

Mazkur sharoitda ota-onalar bilan ishlashning an'anaviy shakllari bilan bir qatorda innovatsion yondashuvlarni qo'llash zarurati yuzaga kelmoqda. Xususan, mobil ilovalar, raqamli maslahat platformalari, interaktiv metodik vositalar va masofaviy pedagogik ko'mak tizimlari ota-onalarning bilimini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin^[5]. Mobil ilovalarning afzalligi shundaki, ular ota-onalarga istalgan vaqtda, qulay shaklda, qisqa va tushunarli metodik ma'lumotlarni olish, tavsiyalarni amalda qo'llash hamda tarbiya jarayonini muntazam nazorat qilish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan mazkur tadqiqotning dolzarbligi maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash bilan belgilanadi^[1]. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga zamonaviy raqamli pedagogik yondashuvlarni joriy etish, ota-onalar bilan hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish hamda bolalarda sog'lom gender identifikatsiyasini shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Muammoning hozirgi kundagi tadqiqotlarda mavjud bo'lgan bo'shliqlar

Mavjud ilmiy tadqiqotlarning aksariyati gender identifikatsiyasining psixologik asoslari, shakllanish bosqichlari va ijtimoiy omillarini nazariy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, ota-onalar bilan ishlashga yo'naltirilgan aniq, tizimli va amaliy modellar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Holbuki, maktabgacha yoshdagi bola hayotida oila birlamchi ijtimoiylashuv muhitini tashkil etadi va aynan ota-onalar orqali genderni o'zlashtirishga oid dastlabki tasavvurlar shakllanadi. Shu bois ota-onalarni faol pedagogik subyekt sifatida jalb etuvchi, ularning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion modellarga ehtiyoj mavjud.

Ota-onalarning gender tarbiya bo'yicha pedagogik savodxonligini oshirish masalasi ko'plab tadqiqotlarda tilga olingan bo'lsa-da, bu jarayonda mobil ilovalar, raqamli platformalar va masofaviy ta'lim vositalaridan foydalanish imkoniyatlari yetarli darajada o'rganilmagan. Bugungi raqamli jamiyat sharoitida ota-onalar uchun qulay, tezkor va individual yondashuvni ta'minlaydigan mobil texnologiyalar samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Biroq mazkur imkoniyatlarning gender tarbiya jarayoniga integratsiyasi bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlar deyarli ishlab chiqilmagan.

Ota-onalarga mo'ljallangan interaktiv pedagogik platformalar, mobil ilovalar va raqamli ta'lim resurslarining maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasiga ko'rsatadigan ta'siri bo'yicha empirik tadqiqotlar soni nihoyatda kam. Mavjud ilmiy ishlarning aksariyatida bunday vositalarning umumiy ta'lim samaradorligiga ta'siri o'rganilgan bo'lsa-da, aynan gender identifikatsiyasi kabi nozik va murakkab psixologik jarayonlarga ta'siri yetarlicha ilmiy asoslanmagan.

Yuqoridagi ilmiy-amaliy bo'shliqlar maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning yangi, innovatsion, xususan, mobil ilovaga asoslangan pedagogik modelini ishlab chiqish zaruratini asoslab beradi. Mazkur model nafaqat ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish, balki oilaviy tarbiya jarayonini tizimli va samarali tashkil etish, shuningdek, bolalarda sog'lom gender identifikatsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy yechim sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda empirik izlanishlar Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani hududidagi 5-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida amalga oshirildi. Tadqiqotda katta va tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarining 86 nafar ota-onasi ishtirok etdi. Tanlanma maqsadli usul asosida shakllantirilib, respondentlarning pedagogik savodxonligi va gender tarbiya bo'yicha qarashlarini aniqlashga yo'naltirildi.

Ma'lumotlar to'plashda anketa-so'rovnoma metodidan foydalanilib, ota-onalarning gender identifikatsiyasi haqidagi bilim darajasi, mavjud stereotip qarashlari hamda farzand bilan muloqot uslublari o'rganildi. So'rovnoma natijalari tadqiqotning boshlang'ich diagnostika bosqichini tashkil etdi.

Shuningdek, tadqiqotda pedagogik tajriba-sinov metodi qo'llanilib, Q.M. Razzoqova tomonidan ishlab chiqilgan "Gender Kids" mobil ilovasi amaliyotga joriy etildi. Ilova ota-onalarga mo'ljallangan bo'lib, unda gender tarbiya bo'yicha qisqa metodik tavsiyalar, psixologik maslahatlar, test va mini-so'rovnomalarda kundalik eslatmalar, ota-onalar uchun o'yin tavsiyalari hamda tarbiyaviy ertaklar tizimli tarzda taqdim etildi. Mazkur komponentlar ota-onalarning bilimini oshirish, tarbiyaviy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va farzand bilan muloqotni takomillashtirishga xizmat qildi.

Tajriba-sinov ishlari 30 kun davomida olib borilib, ushbu davrda ota-onalarning mobil ilovadan foydalanish faolligi, berilgan tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish darajasi hamda pedagogik qarashlaridagi o'zgarishlar muntazam kuzatildi.

Olingan natijalar matematik-statistik tahlil asosida qayta ishlanib, tajribadan oldingi va keyingi ko'rsatkichlar qiyosiy tahlil qilindi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash va qo'llanilgan innovatsion model samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi(1-jadval).

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval: Ota-onalarning gender tarbiya bo'yicha bilim darajasi

Ko'rsatkich	Oldin	Keyin
Yuqori daraja	18%	61%
O'rta daraja	34%	27%
Past daraja	48%	12%

Tajriba-sinov natijalari ota-onalarning gender tarbiya bo'yicha bilim darajasida sezilarli ijobiy dinamikani ko'rsatdi. Dastlabki diagnostika bosqichida respondentlarning atigi 18 foizi yuqori darajadagi bilimga ega ekanligi aniqlangan bo'lsa, tajriba yakunida bu ko'rsatkich 61 foizga yetdi. Demak, qisqa muddatli, ammo tizimli va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik ta'sir natijasida yuqori darajadagi bilimga ega ota-onalar ulushi 43 foizga oshgan. Bu esa mobil ilova orqali berilgan metodik tavsiyalar, qisqa va aniq tushuntirishlar hamda muntazam eslatmalar ota-onalar tomonidan samarali o'zlashtirilganini ko'rsatadi.

O'rta darajadagi bilim ko'rsatkichi 34 foizdan 27 foizga pasaygan bo'lib, bu holat mazkur toifadagi respondentlarning bir qismi yuqori darajaga ko'tarilganini anglatadi. Ya'ni, o'rta bilim darajasiga ega bo'lgan ota-onalar mobil ilovadan foydalanish jarayonida o'z bilimlarini chuqurlashtirib, yanada mukammal pedagogik yondashuvni shakllantira olganlar.

Eng muhim natijalardan biri past darajadagi bilim ko'rsatkichining keskin kamayishidir. Tajribadan oldin 48 foizni tashkil etgan ushbu ko'rsatkich tajriba yakunida 12 foizgacha tushgan, ya'ni 36 foizlik pasayish kuzatilgan. Bu esa gender tarbiya bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lmagan ota-onalar sonining sezilarli darajada qisqarganini bildiradi. Ushbu natija mobil ilova orqali berilgan materiallarning tushunarli, tizimli va amaliy yo'naltirilganligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, birinchi jadval natijalari mobil ilovaga asoslangan pedagogik modelning ota-onalarning gender tarbiya bo'yicha bilim darajasini oshirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi(2-jadval).

2-jadval: Ota-onalarning farzand bilan genderga oid to'g'ri muloqot ko'nikmalari

Ko'rsatkich	Oldin	Keyin
To'g'ri yondashuv mavjud	39%	78%
Qisman mavjud	31%	16%
Yetarli emas	30%	6%

Tadqiqot natijalari ota-onalarning farzand bilan muloqot qilish madaniyatida ham sezilarli sifat o'zgarishlari yuz berganini ko'rsatdi. Tajribadan oldin respondentlarning 39 foizi farzand bilan genderga oid to'g'ri



yondashuvni qo'llay olgan bo'lsa, tajribadan keyin bu ko'rsatkich 78 foizga yetgan. Bu 39 foizlik o'sish ota-onalarning nafaqat nazariy bilimga ega bo'lganini, balki ushbu bilimlarni amaliyotda qo'llashni ham o'rganganini ko'rsatadi.

Qisman to'g'ri yondashuvga ega bo'lgan ota-onalar ulushi 31 foizdan 16 foizga kamaygan. Bu esa mazkur toifadagi respondentlarning katta qismi to'liq va to'g'ri pedagogik yondashuvni egallaganini bildiradi. Ya'ni, ilgari noaniq yoki yetarlicha asoslanmagan muloqot uslublari o'rnini ilmiy asoslangan, maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy yondashuvlar egallagan.

Eng e'tiborli natijalardan biri – yetarli darajada muloqot ko'nikmasiga ega bo'lmagan ota-onalar ulushining 30 foizdan 6 foizgacha kamayganidir. Bu 24 foizlik pasayish noto'g'ri yoki samarasiz muloqot uslublarning deyarli bartaraf etilganini ko'rsatadi. Mazkur holat mobil ilova orqali berilgan amaliy tavsiyalar, real hayotiy misollar va kundalik eslatmalar ota-onalarning xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, ikkinchi jadval natijalari ota-onalarda faqat bilim darajasining oshishi bilan cheklanib qolmasdan, balki ularning farzand bilan kundalik muloqotida ham sifat jihatidan ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi. Bu esa tadqiqotda qo'llanilgan mobil ilovaga asoslangan pedagogik modelning kompleks va amaliy samaradorligini isbotlaydi.

Natijalar ota-onalar bilan ishlash orqali bolalarda ham ijobiy o'zgarishlar yuzaga kelganini ko'rsatdi. Bu mobil ilovaga asoslangan model samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ota-onalar bilan ishlashning an'anaviy shakllariga nisbatan mobil ilovaga asoslangan model yuqori samaradorlikka ega. Chunki mobil ilova ota-onalarga qulay vaqtda, masofadan turib, uzluksiz pedagogik ko'mak olish imkonini berdi.

Ilovadagi mini-testlar, ertaklar, o'yinlar va qisqa tavsiyalar ota-onalarning qiziqishini oshirdi. Kundalik eslatmalar esa tarbiya jarayonida izchillikni ta'minladi. Natijada ota-onalarning gender tarbiya bo'yicha bilim darajasi oshdi, bolalarda esa sog'lom gender identifikatsiyasi ko'rsatkichlari yaxshilandi.

Mazkur natijalar Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi va M.Q. Razzoqova ilmiy qarashlari bilan uyg'unlashadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni yaqqol namoyon etdiki, ota-onalar bilan ishlashga yo'naltirilgan mobil ilovaga asoslangan pedagogik model nafaqat bilim uzatish vositasi, balki tarbiyaviy jarayonni chuqur transformatsiya qiluvchi samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ldi. Olingan empirik ma'lumotlar ota-onalarda gender tarbiya bo'yicha faqat nazariy tushunchalar shakllanib qolmay, balki ushbu bilimlar kundalik muloqot, tarbiyaviy qarorlar va xulq-atvor darajasida amaliy ifodasini topganini ko'rsatdi.

Ayniqsa, farzand bilan muloqot madaniyatidagi ijobiy o'zgarishlar ota-onalarning pedagogik yondashuvi sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganini tasdiqlaydi. Bu jarayonda mobil ilova vositasida berilgan tizimli tavsiyalar, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan yondashuvlar hamda muntazam eslatmalar ota-onalarning fikrlash tarzini yangilashga, stereotip qarashlardan voz kechishga va ongli tarbiyaviy pozitsiyani shakllantirishga xizmat qildi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli pedagogika imkoniyatlaridan oqilona foydalanish orqali oila va ta'lim tizimi o'rtasidagi uzviylikni mustahkamlash, ota-onalarni faol pedagogik subyektga aylantirish hamda bolalarda sog'lom gender identifikatsiyasini shakllantirish mumkin. Bu esa zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi – ongli, ijtimoiy moslashgan va psixologik barqaror shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, mobil ilovaga asoslangan ushbu modelni nafaqat muayyan ta'lim muassasasi doirasida, balki kengroq maktabgacha ta'lim tizimiga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv kelajakda pedagogika fanida raqamli texnologiyalar asosida oilaviy tarbiyani qo'llab-quvvatlashning yangi konseptual yo'nalishlarini shakllantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Razzoqova, M.Q. (2025). Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini shakllantirishda uchraydigan muammolar. <https://research.nordicuniversity.org/index.php/nordic/article/view/1646>
2. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Prentice-Hall. https://books.google.com/books/about/Social_Learning_Theory.html?id=ixAonQEACAAJ
3. Bem, S.L. (1993). The Lenses of Gender: Transforming the Debate on Sexual Inequality. Yale University Press.
4. UNESCO. (n.d.). Early Childhood Care and Education. UNESCO. <https://www.unesco.org/en/early-childhood-education>
5. UNICEF. (n.d.). Early Childhood Development. UNICEF. <https://www.unicef.org/early-childhood-development>
6. Kohlberg, L. (1966). A Cognitive-Developmental Analysis of Children's Sex-Role Concepts and Attitudes.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.